E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

ENG YUKSAK INSONIY QADRIYATLAR QOMUSI – BU KONSTITUTSIYA

Ochilov Istam Nabiyevich

Jamoat xavfsizligi universiteti Kafedra dotsenti

Annotatsiya

1992-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning, davlatimizning dunyodagi mavqei, istiqbolini huquqiy jihatdan mustahkamlagan va kafolatlagan muhim hujjat bo‘ldi. Davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan qomusnoma – bu Konstitutsiyadir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning bu e’tirofi bugun Asosiy qonunimizga berilgan oddiy ta’rif emas, balki O‘zbekistonning kelajagi, jahon miqyosida tutgan o‘rni mustahkamlanib borishiga oid bashorati kabi jaranglaydi.

Kalit so‘zlar

Hujjat, qonun, Konstitutsiya, qadr-qimmat, erkinlik, huquq, burch, qonun, jamiyat.

Darhaqiqat, davlat o‘z huquqiy hujjati – Konstitutsiyasi bilan dunyo sahniga qadam qo‘yadi. Shu jihatdan har tomonlama mukammal va xalqaro standartlar talablariga to‘liq javob beradigan Asosiy qonunimizning yaratilishi xalqimiz hayotida ulkan tarixiy voqea bo‘lishi bilan birga, ulug‘ maqsadlar sari sobit qadam tashlashida mustahkam huquqiy zamin bo‘ldi.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev alohida qayd etganidek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy tafakkurining noyob namunasidir.Shu o‘rinda Konstitutsiyamizning yaratilishi tarixiga bir nazar tashlasak. 90-yillar xalqimiz uchun qanday og‘ir sinovlar davri bo‘lgani bugun sir emas. Lekin shunday murakkab bir davrda xalqimizning asriy orzusi bo‘lgan mustaqillik sari, uning huquqiy asoslarini yaratish va mustahkamlash yo‘lida dadil qadamlar qo‘yilgan.

1990-yil 20-iyun kuni Mustaqillik deklaratsiyasini qabul qilish jarayonida O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasini yaratish taklifi ilgari surildi. Shu maqsadda Konstitutsiya komissiyasini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov raisligida davlat arboblari, deputatlar, mutaxassislarni o‘zida jamlagan Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi.Adliya vazirligi bu borada ishchi organ etib belgilandi. O‘sha vaqtda mazkur tashkilot rahbaridan biri sifatida Konstitutsiyaning dunyoga kelishi bilan bog‘liq ko‘pchilik jarayonlarda vazirlik xodimlari bilan birga ishtirok etganmiz.

Konstitutsiya – qonunlarga asos bo‘luvchi, davlatning huquqiy maqomini belgilovchi muhim hujjatligi bois uni yaratish oson kechmagan. Boz ustiga o‘sha davrda bizda qonunchilik bilan shug‘ullanuvchi institutlar bo‘lmagan, alohida tajriba hali shakllanmagan edi.Shu boisdan har tomonlama yetuk, akademik bilimlarni egallagan olimlar, amaliyotchilar tajribasi asqotgan, desak xato bo‘lmaydi. O‘sha vaqtda ko‘zga ko‘ringan, yirik huquqshunos olimlar Shavkat O‘razayev, Anvar A’zamxo‘jayev, Hojiakbar Rahmonqulov va boshqalar butun tajribasi, salohiyatini ishga solgan holda ilk loyihani tayorlashda jonbozlik ko‘rsatgan.Jahon tajribasini, demokratiya va eng rivojlangan mamlakatlar konstitutsiyaviy qonunchiligi erishgan yutuqlarni sinchiklab o‘rganish bilan bir qatorda milliy davlatchiligimizning ko‘p asrlik tarixi, xalqimizning o‘ziga xosligiga alohida

e’tibor qaratilgan holda komissiya tomonidan ikki yildan ortiq vaqt mobaynida Konstitutsiya loyihasi tayyorlandi.

Mazkur loyiha hamda rivojlangan davlatlar konstitutsiyalari normalari yonma-yon o‘rin olgan katta tarx Birinchi Prezidentimiz huzurida taqdim qilinar edi. Sinchiklab o‘rganish va boshqa davlatlar tajribasiga nazar solgan holda, u kishi har safar o‘z qo‘li bilan loyihaga o‘zgartirishlar kiritardi, fikrlarini bildirardi. Shu yaxlit loyiha qayta-qayta ishlandi. Nihoyat, Konstitutsiya loyihasi 1992-yil 8-sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e’lon qilindi.Muhokama jarayonida xalqimiz faol ishtirok etdi. Adliya vazirligi olimlar, deputatlar va mutaxassislar ishtirokida loyihada aks etgan tamoyillar mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali aholiga tushuntirib bordi.Konstitutsiya loyihasi muhokama jarayonida bildirilgan takliflar asosida yanada takomillashtirildi. Muhimi, bu uning keng jamoatchilik ekspertizasidan o‘tishini ta’minladi.

1992-yil 8-dekabr kuni Bosh qomusimiz qabul qilindi. Shu kundan e’tiboran, 8 dekabr – umumxalq bayrami, deb e’lon qilindi.

Konstitutsiyaning qabul qilinishi ijtimoiy va davlat qurilishining barcha jabhalaridagi munosabatlarni, milliy qonunchiligimizning barcha sohalarini tartibga soluvchi aniq huquqiy tizimni tashkil etdi. Konstitutsiya yaratilishi va qabul qilingunigacha bo‘lgan barcha jarayonlarda Birinchi Prezidentimizning doimiy e’tibori, fikr-mulohazalari, talabchanligi alohida o‘rin tutdi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev alohida qayd etganidek, Islom Karimovni haqli ravishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muallifi, deb e’tirof etish uchun barcha asoslarga egamiz.Davlatimiz rahbarining 2017-yil yil 20-iyun kuni «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining yigirma besh yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoyishi qabul qilingani Asosiy qonunimizga bo‘lgan yuksak e’tibor namunasidir. Shu asosda amalga oshirilayotgan ishlar aholi va yoshlarning nafaqat huquqiy ongini oshirish, balki ularda vatanparvarlik tuyg‘usi yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

– Inson va uning qadr-qimmatiga oid tamoyillar qomusimizda markaziy o‘rinni egallaganining boisi nimada?

– Darhaqiqat, Bosh qomusimizning muhim g‘oyasi – bu hayot gultoji bo‘lgan insonni qadrlashga, uning manfaatlarini muhofazalashga qaratilgan. Bu davlatimiz siyosatida insonparvarlik prinsipi ustuvorligining yaqqol namunasi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki mustaqillikkacha bo‘lgan davrda, ya’ni sobiq tuzumda davlat manfaatlari barcha narsadan ustun qo‘yilganini yodga olsak, bugungi maqsad-muddaolarimiz ezguligi, Konstitutsiyamiz esa eng yuksak insoniy qadriyatlar mujassamlashgan xalqchil qomus ekanligi oydinlashadi.Asosiy qonunimizda e’tirof etilganidek, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi.Ushbu konstitutsiyaviy tamoyillar va ularning amalda ta’minlanayotgani tufayli yurtimizda har bir inson o‘zini himoyalangan his etadi. Tinch va farovon hayot kechirmoqda. Aholining o‘z muammo va tashvishlari bilan davlat organlariga murojaat etishi uchun imkoniyatlar Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida yanada kengaydi. **Konstitutsiya (lotincha: constitutio — „tuzilish“, „tuzuk“) — bu davlatning asosiy qonuni.** U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi.

Konstitutsiya davlatchilik belgisidir. Bir-biridan farqlanuvchi yuridik va haqiqiy (faktik) konstitutsiya tushunchalari bor. Yuridik konstitutsiya ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soluvchi ma'lum huquqiy normalar tizimi. Xalqaro konstitutsiyaviy tajribalarni o'rganish, xalqaro hujjat qoidalarini inobatga olish, milliy davlatchilik an'analardan kelib chiqish natijasida yaratilgan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan) jahon andozalariga mos bo'lib, xalqaro talablarga javob beradi. Ma'lumki, o'tgan davr mobaynida Respublikamiz iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar, islohotlar, qanchadan-qancha bunyodkorlik ishlari amalga oshirilayotganligi hamda bevosita Konstitutsiyamizga bog'liqligi, huquqiy fuqarolik jamiyati qurishda hukumatimizning Konstitutsiya va qabul qilingan qonunlar asosida faoliyat olib borayotganligi, mustaqilligimiz bilan bir qatorda Konstitutsiyamizning qabul qilinganligini ham har yili nishonlanishi bejiz emas, albatta.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatimizda har qaysi oila va fuqarolarimiz hayotida qanday ijobiy o'zgarishlar sodir bo'layotgan bo'lsa, bularning barchasini Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan talab va qoidalarning hayotimizdagi amaliy ifodasi deb, qabul qilishimiz kerak albatta. Zero, Konstitutsiyamiz tarixan sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan hujjatdir. Asosiy qonunimiz eng rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgandir.Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarini doimiy olib borish lozimdir. Shuningdek, yoshlarni qonunlarga itoatkorlik ruhida tarbiyalash, maktab davridan ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish eng muhim masalalardan biri bo'lib turibdi, fuqarolarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish uchun albatta birinchi navbatda Konstitutsiyada belgilangan normalarni bilishdan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Muhammad Ali. "Konstitutsiya – mustaqilligimiz tuzugi". "Sharq". 2010-yil.

2. Davlat tili haqida (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasining Qonuni.– T.: O'zbekiston, 1997.

3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: Sharq, 1997.

4. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston.

5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.

6. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.–T.:O'zbekiston, 2017.